



QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDA ARXELOGIYA MEROSINI MUHOFAZA QILISH VA RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Baybosinov Serik Saesenbaevich,
Qoraqalpog‘iston Respublikasi
Madaniy meros boshqarmasi boshlig‘i

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.19607324>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qoraqalpog‘iston Respublikasida arxeologiya merosini muhofaza qilish, saqlash va undan samarali foydalanish masalalari tahlil qilingan. Hududdagi arxeologik obyektlarning huquqiy maqomi, ularni davlat muhofazasiga olish jarayonlari hamda infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar yoritilgan. Shuningdek, arxeologiya yodgorliklarini turizm sohasiga integratsiya qilish, ilmiy tadqiqotlar olib borish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan. Maqolada zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish, yangi obyektlarni aniqlash hamda ularni milliy ro‘yxatga kiritish jarayonlari ham ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari hududning turizm salohiyatini oshirish va madaniy merosni asrashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit. so‘zlar. arxeologiya merosi, madaniy meros, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, arxeologik yodgorliklar, muhofaza qilish, turizm, infratuzilma, xalqaro hamkorlik, muzeylashtirish, ilmiy tadqiqotlar, madaniy obyektlar, QR-kod texnologiyasi.

Annotation. This article analyzes the issues of protection, preservation, and effective use of the archaeological heritage of the Republic of Karakalpakstan. The legal status of archaeological sites in the region, the processes of obtaining them under state protection, and measures aimed at developing infrastructure are highlighted. Special attention was also paid to the integration of archaeological monuments into the tourism sector, conducting scientific research, and developing international cooperation. The article also examines the processes of introducing modern information technologies, identifying new objects, and including them in the national list. The research results are important for increasing the tourism potential of the region and preserving cultural heritage.

Keywords: archaeological heritage, cultural heritage, Republic of Karakalpakstan, archaeological monuments, protection, tourism, infrastructure, international cooperation, museumification, scientific research, cultural objects, QR code technology.

Bugungi kunda madaniy merosni asrash va undan samarali foydalanish masalasi global miqyosda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, arxeologik meros insoniyat tarixining muhim manbai sifatida ilmiy, madaniy va turistik jihatdan katta qiymatga ega. O‘zbekiston Respublikasida, xususan, Qoraqalpog‘iston Respublikasida ushbu yo‘nalishda tizimli va kompleks islohotlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi va xalqaro jamiyatda moddiy madaniy merosga bo‘lgan e‘tibor alohida ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, moddiy madaniy merosni asrab-avaylash va ularni kelgusi avlodlarga yetkazish uchun O‘zbekistonda ham bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, ushbu muammo jahonda qator xalqaro tashkilotlarning ham e‘tiborida bo‘lib, bu borada maxsus me‘yoriy hujjatlar



hayotga tatbiq etilgan. [1.13-bet] Shuni inobatga holda, Respublikamizda mustaqillik yillarida qadimiy yodgorliklar va madaniy meros ob'ektlarini saqlash, ularni konservatsiya hamda restavratsiya qilish ishlarini amalga oshirish ro'yxati shakllantirilib, davlat muhofazasiga kiritish bo'yicha Qarorlar ishlab chiqilgan.

Ta'kidlash joizki, bir necha yillik tarixiy jarayonlarda Qoraqalpog'iston Respublikasining bugungi chegaralari turlicha bo'lgan. Ma'lumki, Xorazm vohasining cheksiz sahrolarida bir qancha arxeologik yodgorliklar va qadimiy tarixiy obidalar qum ostida qolib ketgan. Mazkur yodgorliklarni o'rganish borasida ko'plab taniqli sharqshunos olimlar tomonidan Xorazm hududlariga anchagina qiziqish bildirilgan. Masalan, akademik V.V.Bartold Xorazm arxeologik va etnografik materiallarining tarix uchun ahamiyatini mukammal tushunib yetgan olimlardan biridir. Mazkur ilmiy tadqiqotlar alohida qiziqish uyg'otganini ta'kidlagan, chunki bu yerda cho'l va dengizlar bilan o'ralgan bo'lib, Angliyaga o'xshab butun hayot o'ziga xos turmush tarziga ega bo'lgan va hatto tashqaridan olingan xususiyatlar ham o'ziga xos ravishda hayotiylik kasb etgan edi. Barchaga ayonki, Xorazm Markaziy Osiyo mintaqasining qadimiy mintaqalaridan biri hisoblanib, hozirgi O'zbekiston, Qoraqalpog'iston va Turkmaniston hududlaridan tashkil topgan. Ushbu hudud azaldan arxeolog, etnograf va sharqshunos olimlarning diqqat-e'tiborini tortgan bo'lib, dastlab bu yerlarni "Xorazm arxeologiya va etnografiya" ekspeditsiyasi rahbari S. Tolstov tomonidan o'rganilgan edi. [2, B.3-4]

O'lkani yaqindan o'rgangan olimlarning fikriga ko'ra, Qoraqalpog'iston hududiga insonlarning kelib yashashi so'nggi paleolit davriga to'g'ri keladi. Miloddan avvalgi V–II ming yillik boshlarida aholi asosan, Amudaryo deltasi, Orol va Kaspiy dengizlari yon atroflariga joylashgan.[3, 60-61] Mil. avv. II ming yillik oxiriga kelganda, ushbu hududlarda dehqonchilik paydo bo'la boshlagan. Mil. avv. VII–VI asrlarda Qoraqalpog'iston hududida qadimgi davlatchilik markazlari tashkil topgan bo'lsa, mil. avv. IV asrlarda esa Ahamoniylar saltanati tarkibidan ajralib chiqib, qadimgi Xorazm davlati tashkil etilgan. Mazkur davlatda qal'a va qo'rg'onlarning qurilishiga e'tibor berilgan. [3, B.68]

Qadimgi va o'rta asrlardagi Xorazm yodgorliklarini o'rganish bo'yicha XX asrning 30-yillaridan boshlangan. Mazkur tadqiqotlar 1936–1990- yillar hamda mustaqillik davri tadqiqotlari, qadimgi va o'rta asrlardagi Xorazm yodgorliklarini tadqiq qilish akademik Ya. G'ulomov hamda S. Tolstovlarning faoliyati bilan bog'liq bo'lib, 1936–1940- yillarda Katta Guldursun, Pilqal'a, Hazorasp, Qal'ajiq, Olma otishkan, Xiva, Jigarband va boshqa shaharlar arxeologik jihatdan o'rganilgan edi. [4, B.22-23] Mazkur qal'alar Markaziy Osiyodagi eng qadimiy madaniy markazlarlan biri hisoblanib, Amudaryoning quyi oqimida joylashgan edi. Bu yerda antik davrlardan sivilizatsiya rivojlangan bo'lib, bu yerdan asosiy savdo karvon yo'li o'tgan. Shu bilan birga, murakkab irrigatsion tizimi bilan tanilgan, ko'chmanchi va o'troq aholi bilan o'zaro aloqada bo'lgan. Xorazm cho'llarida bugungi kunga qadar arxeologik yodgorliklar va qadimgi davr irrigatsiya tizimlarining qoldiqlari saqlanib qolgan. Xorazm arxeologiya va etnografiya ekspeditsiyasi ilmiy ishlari diqqatga



sazovordir. Xususan, arxeolog S.P.Tolstovning ushbu hududda olib borgan keng ko‘lamli ilmiy izlanishlari zamonaviy tarix fanining shakllanishi, shu bilan birga, O‘zbekiston, Qozog‘iston va Turkmanistonda arxeologiya hamda etnografiya maktablarining vujudga kelishiga asos bo‘lgan.[5, B.3] O‘z o‘rnida shuni alohida qayd etish ham kerakki, Xorazmda qadimdan shahar madaniyati va dehqonchilik, chorvachilik rivojlangan, shu bilan birga, ko‘chmanchi chorvador qabilalar yashagan hududlar bilan chegaradosh bo‘lganligi ilm fan tomonidan tasdiqlangan.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida hozirgi kunda jami 131 ta arxeologiya obyektlari davlat muhofazasi ro‘yxatiga kiritilgan bo‘lib, ularning barchasi uchun kadastr hujjatlari rasmiylashtirilgan. Mazkur jarayon O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari asosida amalga oshirilgan.[1, B.1]

So‘nggi yillarda arxeologiya yodgorliklarini muhofaza qilish, saqlash va ulardan foydalanishni takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Xususan, “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida” hamda “Arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi qonunlar asosida sohaga oid normativ-huquqiy baza mustahkamlangan. Arxeologik obyektlarni saqlash bilan bir qatorda ularni turizmga jalb etish maqsadida infratuzilma rivojlantirilmoqda. Jumladan, To‘rtko‘l tumanidagi “Qo‘yqirilgan qal’a” arxeologiya yodgorligi metall panjaralar (3 D panjara) bilan o‘rab olinib, kuzatish maydonchalari va piyodalar yo‘laklari tashkil etilgan. Shuningdek, tashrif buyuruvchilar uchun avtoturargohlar barpo etilgan.[2, B.2]

Shu bilan birga, Beruniy tumanidagi “Aqchaxan qal’a” obyektida ta‘mirlashtirish va muzeylashtirish ishlari olib borilmoqda. Kelgusida Ellikqal’a tumanidagi “To‘proqqal’a” hamda “Katta Guldursin qal’a” yodgorliklarida ham asrashga doir ishlar amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Qoraqalpog‘iston Respublikasida 40 dan ortiq madaniy meros obyektlari turizm marshrutlariga kiritilgan. Ular qatoriga “Chilpiq”, “Aqchaxan qal’a”, “To‘proqqal’a”, “Qo‘yqirilgan qal’a”, “Jambas qal’a”, “Jampiq qal’a”, “Katta Qirqqiz qal’a” va “Bazar qal’a” kabi muhim arxeologik obyektlar kiradi. Mazkur yodgorliklarning turizm marshrutlariga kiritilishi hududning turistik jozibadorligini oshirish, shuningdek, iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Shu bilan birga arxeologik obyektlarda ilmiy tadqiqotlar muntazam ravishda olib borilmoqda. Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti, Qoraqalpoq davlat universiteti va Nukus davlat pedagogika instituti tomonidan Madaniy meros agentligi tomonidan berilgan maxsus ruxsatnoma asosida arxeologik qazuv va qidiruv ishlari amalga oshirilib kelinmoqda. Shu jumladan, 7 tasida: Aqshaxan qala (Qazaqli yatqan), Hayvan qala, Katta Qirqqiz qal’a, Bazar qal’a, Qurg‘ansha qala, Katta Qavat qal’a va Kuyuk qal’a arxeologiya obyektlarda xorijiy davlatlar arxeologlari bilan hamkorlikda Qo‘shma ekspeditsiyalar tashkil qilinib kelinmoqda. Masalan, Xalqaro qo‘shma ekspeditsiyalar: Sidney universiteti (Avstraliya), Sharq xalqlari san’ati davlat muzeyi (Rossiya), Renmin universiteti (Xitoy), Rossiya Fanlar akademiyasi



Sharqshunoslik instituti (Rossiya), Tatariston Respublikasi Fanlar akademiyasi A.X.Xalikov nomidagi arxeologiya instituti (Rossiya), Neapol universiteti (Italiya), Ankara universiteti (Turkiya), ISMEO – Yer o‘rta dengizi va sharqshunoslik xalqaro assotsiyatsiyasi (Italiya) bilan birgalikda arxeolog olimlarimiz tadqiqodlar olib bormoqda.

Ushbu arxeologiya obyektlaridan ko‘plab noyob ashyolar topilgan bo‘lib, ushbu ashyolar, asosan, Beruniy tumanidagi “Aqchaxan qal’a” (Qazaqli yatqan) arxeologiya obyektidan topilgan ashyolar ko‘rgasmasi I.V.Savitskiy nomidagi Qoraqalpog‘iston davlat san’at muzeyi, Parijdagi Luvr muzeyi (Fransiya), Germaniyadagi Jeyms Simon galereyasi hamda Yangi muzey (ikkalasi xam Germaniyada), shuningdek, Qoraqalpog‘ gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti qoshidagi muzeyda tashkil etilgan.

Ilmiy izlanishlar samarasi sifatida 2024–2025-yillarda olib borilgan tadqiqotlar natijasida yangi arxeologiya obyekti — “Qirqqiz qal’a manzilgohi” aniqlanib, uni milliy ro‘yxatga kiritish bo‘yicha tegishli takliflar berildi va ilmiy ekspert kengashi tomonidan ma’qullandi.

Bugungi kunda jadal rivojlangan jamiyatda raqamlashtirish ishlari ham arxeologik ob’ektlarida qullanilib kelmoqda. Shuningdek, ayrim yodgorliklarda zamonaviy axborot texnologiyalari joriy etilib, QR-kodli axborot taxtachalari o‘rnatilgan. Xususan, Mizdaxkan majmuasidagi obyektlarda bu tizim tashrif buyuruvchilarga qo‘shimcha qulaylik yaratmoqda.[7]

Xulosa o‘rnida shuni takidlash joyizki Qoraqalpog‘iston Respublikasida arxeologiya merosini muhofaza qilish va undan samarali foydalanish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Huquqiy bazaning mustahkamlanishi, infratuzilmaning rivojlanishi, turizm salohiyatining oshishi hamda xalqaro ilmiy hamkorlikning kengayishi ushbu sohaning barqaror rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Kelgusida arxeologik obyektlarni raqamlashtirish, ularni xalqaro turizm tarmoqlariga yanada faol integratsiya qilish va ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish ushbu yo‘nalishning ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 04.10.2019 й. 846-сон “Моддий маданий мероснинг кўчмас мулк объекtlари миллий рўйхатини тасдиқлаш тўғрисида”ги Қарори
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 27.05.2022 йилдаги ПҚ – 261 сонли қарори
3. Курязова Д. Т. Ўзбекистон моддий-маданий меросини ўрганиш, сақлаш ва музейлаштиришнинг назарий-методологик асослари. Тарих фанлари доктори (DSc) автореферати. – Тошкент, 2021.
4. Аржанцева И. Хорезм история открытий и исследований по материалам архива Хорезмской экспедиции 1937–1959 гг. – Ульяновск: ООО Артишок, 2016
5. Жданко Т., Камалов С. Этнография каракалпаков XIX – начало XX века (материалы и исследования) – Ташкент: Фан, 1980. – С. 60–61.
6. Ходжаниязов Б. Қадимги Хоразмнинг мудофаа иншоотлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2007.

**“SIRLI RANGLARDAGI MILLIY MEROS”
mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiyasi**



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MADANIY MEROS
AGENTLIGI

7. Qoraqalpogiston Respublikasi madaniy meros boshqarmasi hisobotlari 2024-2025
8. Толстов С. П. Древний Хорезм. – Москва: МГУ, 1948.
9. Толстов С. По древним дельтам Окса и Яксарта. – Москва: Восточной литература. 1962.

